

## ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TARBIYANING ROLI

**Xonimova Lobar Xolmamat qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi

E-mail: [lobarxonimova@gmail.com](mailto:lobarxonimova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Milliy uygʻonish davri deb nom olgan yangi adabiyot yoʻnalishida faol ijod qilgan yorqin namoyondalardan biri Abdulla Avloniyning tarbiyaviy qarashlari, uning jadidchilik harakatidagi faol ishtiroki, milliy qadryatlar, millatini maʼrifatli qilish yoʻlidagi koʻrsatgan jasoratlari, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi tarbiyaviy ahamyatlar va Avloniyning gazetchilikka qoʻshgan hissasi haqidagi bayonlar keltirilgan.

**Kalit soʻzlar:** Milliy uygʻonish, jadidchilik, jadid, milliy qadryat, tarbiya, axloq, gazetchilik, mzaʼrifat, mustabit tuzim, “Turkiy guliston yoxud axloq”.

### АННОТАЦИЯ

Одним из ярких проявлений новой литературы, известной как эпоха национального возрождения, являются просветительские взгляды Абдуллы Авлони, его активное участие в движении борьбы, национальные ценности, его мужество просветить свой народ, «турецкий гулистан» или ахлок и представлены утверждения о вкладе Авлони в журналистику.

**Ключевые слова:** Национальный ренессанс, модернизм, модернизм, национальная ценность, образование, нравственность, публицистика, просвещение, стабильная система, «Турецкий Гулистан или нравственность».

### ABSTRACT

One of the bright manifestations of the new literature known as the era of national renaissance, Abdulla Avloni's educational views, his active participation in the struggle movement, national values, his courage to enlighten his nation, “Turkish gulistan or akhloq” and the statements about Avloni's contribution to journalism are presented.

**Keywords:** National renaissance, modernism, modernism, national value, education, morality, journalism, enlightenment, stable system, “Turkish Gulistan or morality”.

## KIRISH

Milliy uygʻonish davrining yorqin namoyondalaridan biri boʻlgan, Turkistonda taʼlim va tarbiyani rivojlantirish, insonlarning milliy ongini uygʻotish yoʻlidagi taʼlimiy, tarbiyaviy, erkparvarlik va mustamlaka ostida qiynalayotgan xalqni ozodlik sari yetaklovchi sheʼr va asarlari bilan oʻz oʻrniga ega boʻlgan jadidchilardan biri Abdulla Avloniydir. “Jadid” soʻziga eʼtibor beradigan boʻlsak arabchadan, “yangi” degan maʼno kelib chiqadi. Shundan koʻrinib turibdiki, jadidchilik bu yangilik izlovchi, yangilik yaratuvchidir. Darhaqiqat, jadidchilik nomi ostida millat uchun qaygʻurgan, tarbiyaviy ahamiyatgan molik yangi koʻrinish bilan boʻy koʻrsatgan adiblardan biri Abdulla Avloniydir.

## ASOSIY QISM

Har bir inson oʻz erki va hurriyati bilan inson boʻlganidek, yer yuzida mavjud boʻlgan davlatlar ham oʻz erki, mustaqilligi bilan toʻlaqonli davlatdir. Mustamlaka davrida tang ahvolda qiynalayotgan millat taqdirini oʻylagan jadid bobolarimiz ana shunday hurriyat zamonlarini orzu qilib yashab oʻtdilar. Qadimdan oʻzining milliy anʼanaviy qadryatlari, diniy va dunyoviy bilimlarda yetakchi olimlarini oʻz bagʻrida kamol toptirgan millatimiz har jihatdan qoloq, asrlar davomida shakillanib kelayotgan urf odatlarimiz eskilik sarqiti deya qaralayotgan bir davrda zulmkor hukumat tuzumiga qarshi hurriyatni kuylovchi, isyonkor, xalqparvar gʻoyalari, ijodida istibdoddan qonga toʻlga dil nolalari va milliy ozodlikni sogʻinga qalb sadolari ila jadid bobolarimiz maydonga chiqib keldilar. Milliy uygʻonish deb nomlangan adabiyotning bosh gʻoyasi ham ozodlik va erksevarlikka qaratilgan edi. Bu adabiyotning yetuk siymolaridan biri Abdulla Avloniydir.

Abdulla Avloniy 1878 -yilning 12- iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi <sup>1</sup>.

“Boʻladigan bola boshidan maʼlum” – deganlaridek boʻlajak mutafakkirda adabiyotga havas yoshlikdan uygʻondi. Bolalikdan kitobga oshno boʻlgan adib Navoiy sheʼriyati, Fuzuliy gʻazallariga mehr qoʻydi. Oʻzga tillarni bilishga boʻlgan ishtiyoq bilan Avloniy fors tilini oʻrgandi. Muslihiddin Saʼdiy va Hofiz Sheroziy sheʼriyatining jozibador olamidan zavq oldi va bu izlanishlar oʻz samarasini berib oʻzi kamtarona qayd qilgandek, “ sheʼrlar yozishga tutindi”<sup>2</sup>. Ammo shoirning ilk yozgan sheʼrlari bizgacha yetib kelmagan.

Maʼrifatparvar shoirning yozgan asarlarida taʼlim va tarbiyaga targʻib qilish asosiy mazmun hisoblanadi. Kishilar tugʻulishidan yomon boʻlib tugʻulmaydilar, muayyan sharoit uni yomon qiladi. Insonga yoshligidan berilgan taʼlim – tarbiya va

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 5-bet

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.1-jild. T.2006.5-bet

yaxshi muhit uni barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liqligicha qoladi. Abdulla Avloniy bu haqda; “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”<sup>1</sup>. Tarbiya insonda tug‘ilgan kundan boshlab toki hayotining oxiriga qadar davom etadi, u ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan iboratdir. Abdulla Avloniy o‘z asarlarida tarbiyani eng yuqori o‘ringa qo‘yadi. Uning barcha asarlarida eng asosiy g‘oya tarbitaga qaratiladi.

1913- yilda Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari nashirdan chiqadi. Kitob asosan yuqori sinf o‘quvchilariga darslik sifatida yozilgan. Ammo, asrimiz boshlaridagi o‘zbek jadid ma’rifatchiligining noyod hodisalaridan bo‘lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab darsligi doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq ixlosmandlari uchun qo‘llanma vazifasida ham xizmat qildi. Avloniyning ushbu ta’limiy didaktik asaridagi hikoyalar mazmun mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak asarning asl mag‘zi insonlardagi yaxshi va yomon xulqlar o‘rtasidagi tafovut, xalqlarni qoloqlik uyqusidan uyg‘otishga qaratilgan da’vatkor g‘oyalari bilan ahamiyatga molikdir. Avloniy tabiri bilan aytganda asar insonlarni” yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” – axloq haqida fikr yuritadi.<sup>2</sup>

Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushinadi. Tarbiyani faqatgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda - sog‘lom aql” degan hikmatning mazmunini chuqur anglagan holda , tarbiyani eng avvalo bolaning sog‘ligiga e’tiborli bo‘lishdan boshlaydi va bu haqda fikr yuritib; “Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki, o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad lozimdur.”<sup>3</sup>

Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida jism bilan ruhni bir biriga bog‘lab tushuntiradi. Zero, kuch – quvvatli sog‘lom tanda fikrlar teran, zehn o‘tkir, xotira mustahkam, ilm o‘rganmoq uchun yetarlicha salohiyat mavjud bo‘ladi. Shunday ekan jism va ruhni bir choponning o‘ng ila chap yengi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalqning ma’rifatli, yuksak ma’naviyatli bo‘lishini, tobora unutilib borayotgan milliy qadryatlarni qayta tiklashni, millatni qoloqlik uyqusidan uyg‘otishni orzulagan shoir 1907 - yildan boshlab gazetchilik faoliyati bilan ham faol shug‘ullana boshlaydi. Bu haqda Avloniy eslashlarida quyidagicha qayd etiladi; “1906 – yilda “Taraqqiy” va “Xurshid” gazetalarini chiqib, eski hukumat tomonidan to‘xtatilganidan so‘ng, 1907 – yilda men o‘z muharrirlikim bilan hamda temiryo‘l ishchilarining sotsial – demokratik firqasining aloqa va yordami bilan “Shuhrat” ismindagi gazetni Sapyorniy ko‘chada

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 32-bet

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006.31-bet

<sup>3</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.2006. 32-bet

chiqardim”.<sup>1</sup> Darhaqiqat, Avloniyning gazeta nomi bilan atalgan “shuhrat” she’rida gazetaning maqsad va muddaosi o‘z aksini topgan;

Jahonda ittifoq-u ilm uchun ovoradur “Shuhrat”,  
Zuhuri ro‘shnoyi ilm uchun mahforadur “Shuhrat”,  
Vujudin sarf qilg‘on ilm uchun bechoradur “Shuhrat”,  
Dili millat g‘amida dam-badam sadporadur “Shuhrat”.

Ma’rifatparvar shoir birgina bular bilan cheklanmaydi 1915-yilda “Sadoyi Turkiston”, 1917-yilda esa “Turon” va “Turk eli” gazetalari ham o‘z ixlosmadlari qo‘liga yetadi.

Xalqini ma’rifatli qilish yo‘lida bor kuch g‘ayratini sarflagan serqirra ijodkor, millat uchun qayg‘urgan, jadidchilik harakatida o‘ziga xos o‘ringa ega, buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda Toshkent shahrida vafot etdi. Mustaqillik yillarida Avloniy xotirasiga chuqur ehtirom ko‘rsatildi. 2020-yil adibga „Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. Alloma hayoti va ijodiga bag‘ishlangan hujjatli va badiiy filmlar yaratildi, millatparvarlik ruhidagi asarlari qaytadan nashr etildi, sahna asarlari yana o‘z muxlislarini topdi. Tom ma’nodan Abdulla Avloniy nomi qaytadan abadiylashtirildi.

## XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mustabit tuzun ostida jabr ko‘rayotgan xalqni qoloqlik uyqusidan uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari, tom ma’nodan mustaqillik sari ilk qadamlarni jasorat bilan tashlay olgan jadidchilik harakati namoyondalari nomlari abadiylashtirildi. Jadid bobolarimiz asarlarining aksariyat qismi asosan ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga molikligi bilan ajralib turadi. Shunday mazmundagi asarlarni Abdulla Avloniy ijodida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yoshlarni ilm olishga da’vat etuvchi ushbu kitoblar bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir millatning ertangi taraqqiyoti uning yoshlaridagi ta’lim va tarbiya salohiyatiga bog‘liqligicha qoladi. Abdulla Avloniy asarlarida esa ushbu mavzular yaqqol namoyon etilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdulla Avloniy. Jadid adabiyoti namoyandalari. “zabarjad media” 2022.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild.2006
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild.2006

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Jadid adabiyoti namoyandalari. „zabarjad media” 2022.4-bet